



UDK:811.512

Soxiba MADIRIMOVA,

PhD, dotsent, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent O'zbekiston

E-mail: madirimovasoxiba@navoiy-uni.uz; ORCID ID: 0000-0002-8609-6351

Professor, f.f.d D.G'ayipov taqrizi asosida

ИЗУЧЕНИЕ ТВОРЧЕСТВА АВАЗА УТАРА В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД

Аннотация

В данной статье в хронологическом порядке рассматриваются и анализируются исследования, касающиеся жизни и творчества Аваза Утара в 40-90-е годы XX века. Данный период изучен на примере статей и монографий таких узбекских и русских ученых, как В. Муминова, Н. Кабулов, В. Мирзаев, Г. Каримов.

Ключевые слова: Аваз Утар, enlightenment thinker, biography, manuscript, devan, qit'a, literature, art, culture, "Xalq", "Hurriyat", "Maktab", "Til".

STUDY OF AVAZ O'TAR'S CREATIVE WORK DURING THE SOVIET PERIOD

Annotation

This article examines and analyzes views regarding the study of the life and work of Avaz O'tar between the 1940s and 1990s in chronological order. These aspects have been investigated primarily through the articles and monographs of Russian and Uzbek scholars such as V. Mo'minova, N. Qobulov, V. Mirzayev, G. Karimov.

Key words: Avaz O'tar, enlightenment thinker, biography, manuscript, devan, qit'a, literature, art, culture, "Xalq" (The People), "Hurriyat" (Freedom), "Maktab" (School), "Til" (Language).

AVAZ O'TAR IJODINING SHO'ROLAR DAVRIDA O'RGANILISHI

Annotsatsiya

Mazkur maqolada Avaz O'tar hayoti va ijodining 40-90-yillarda o'rganilishi yuzasidan fikr-mulohazalar xronologik tartibda tekshirilib, tahlilga tortilgan. Bular, asosan, V. Mo'minova, N. Qobulov, Yu. Yusupov, V. Mirzayev, G. Karimov, G'afur G'ulom, M. Petrov kabi rus va o'zbek olimlarining maqola, monografiyalari misolida o'rganildi.

Kalit so'zlar: Avaz O'tar, ma'rifatparvar, biografiya, qo'lyozma, devon, qit'a, adabiyot, san'at, madaniyat, "Xalq", "Hurriyat", "Maktab", "Til".

Kirish. XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Xorazmda adabiyot, san'at, madaniyat rivoj topdi. Bu davrda ko'plab tarjimonlar, kotiblar hamda Feruz, Tabibiy, Niyoziy, Mutrib, Avaz O'tar kabi yuksak ite'dodli shoir-ma'rifatparvarlar ham yashab ijod qilgan. Bularning ko'plab rang-barang asarlari yosh avlodni tarbiyalashda mayoq vazifasini bajaradi. Ayniqsa, Avaz O'tar she'rlarining hikmatga boyligi o'quvchini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Avaz O'tar hayoti va ijodi 40-90-yillarda adabiyotshunos va tarixchilar tomonidan ko'p o'rganilgan. Buning yorqin namunasi Vasila Mo'minova, Nurmuhammad Qobulov, Valijon Mirzayev, G'ulom Karimovlarining maqola, monografiyalarida ko'zga tashlanadi. Bularda shoir biografiyasiga doir qimmatli ma'lumotlar berib o'tilgan.

1961-yili Valijon Mirzayevning "Avaz O'tar o'g'li" kitobi nashr qilingan. Unda shoirning yoshlik davri, Tabibiy bilan ustoz-shogirdlik masalasi, uning davr ziddiyatlariga oid munosabati yorqin aks etgan. U "...shoimning dastlabki yozgan she'rlarida Munis, Ogahiy, Navoiy kabi buyuk mutafakkir-shoirlarning ta'siri seziladi" - degan fikrlarni qayd qiladi [Mirzayev, 1961, 14-16, 72]. Shu o'rinda, shoirning "Qulluq", "Aylama" kabi g'azallari Ogahiy uslubini esga solishini ta'kidlaydi hamda Ogahiyga ergashib yozgan she'rlaridan birining maqta'ini quyidagicha keltiradi:

Ogahiydek, ey Avaz, nazmingda ta'sir o'lmasa,

Soda ash'oring bilan devoni daftardin na sud.

Valijon Mirzayev ushbu maqta'ni shoirning 1905-yilda ko'chirilgan "Saodat-ul-iqbol" devoni qo'lyozmasining 151-betidan olganini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, bu qo'lyozma devon shoirning ukasi Rajabboy O'tarov qo'lida

saqlanayotgani haqida ham ma'lumot beradi. Bu masala mulohazalidir.

Valijon Mirzayev "She'rlarining tuzilishi va mazmuniga ko'ra Avaz ijodini ikki davrga (1898-1908 va 1908-1919-yillar) bo'lish mumkin" – deya izohlaydi. Olimning fikricha, Avaz O'tar 1905-yilgacha ko'pincha ishqiy g'azallar yozgan, keyin esa ijtimoiy mazmunga ega bo'lgan she'rlar ham yoza boshlagan. U shoir ijodida ijtimoiy she'rlarning yuzaga kelishida quyidagi omillarni sabab qilib ko'rsatadi: "Avaz mehnatkash xalqning och-yalang'och va huquqsizligini, amaldorlarning poraxo'rligini, ruhaniylarning munofiqliklarini o'z ko'zi bilan ko'rdi. Shuning uchun ham u nufuzli a'yonlarga qarata madhiyalar yozib, yuqori imtiyozlarga ko'tarilgandan ko'ra, quyi tabaqaning qayg'u-alamlariga hamdard bo'lib, faqirona yashashni afzal ko'rdi. Shu tufayli zolim amaldorlar va xasis boylardan jirkana boshladi. Avaz qarashlarida yuz bergan bu yangi siyosiy kayfiyatlar uning ijodida satirik ovozlarga aylandi".

Valijon Mirzayev o'z fikrlarini shoirning "Aylama", "Birovlar", "Aylading" radifli g'azallari misolida dalillaydi hamda "Shoir saroydagi amaldorlarning qilmishlarini tasvirlashda "Falon"lar orqali zamonasining xilma-xil voqealarini yoritishga harakat qilgan" – deb qat'iy fikrni aytadi [Mirzayev, 1961, 21-29].

1966-yilda G. Karimovning "O'zbek adabiyoti tarixi" darsligi nashr qilingan. Unda Furqat, Muqimiy, Zavqiy, Komil Xorazmiy, Avaz O'tar, Hamza, Sadridin Ayniylarning hayoti va ijodi o'rganilgan [Karimov, 1966, 257-275]. Ushbuda Avaz O'tar biografiyasi, ijodiy merosi hamda shoir ijodining taraqqiyot bosqishlariga alohida to'xtalangan. Shu o'rinda, G. Karimov 1954-yilda Avaz O'tar tavalludining 70 yilligi

nishonlangani haqida ham ma'lumot beradi [Karimov, 1966, 257-258]. U Avaz O'tar ijodining yuksalishiga, asosan, Munis, Ogahiy, Komil Xorazmiylar ilgari surgan xalqparvarlik g'oyalari ta'sirida yuzaga kelganini, sharq mumtoz adabiyoti, xalq og'zaki ijodi, jahon adabiyoti, ya'ni rus adabiyoti ham shoir ijodining rivojlanishida muhim rol o'ynaganini ta'kidlaydi.

G'ulom Karimov "Avaz O'tarning hayoti va ijodini o'rganish sohasida ancha jiddiy ishlar qilingan bo'lsa-da, hali uning ijodiy faoliyati yetarli darajada mukammal o'rganilgani yo'q" – deya to'g'ri ta'kidlaydi. Bu fikrlarning aytilganiga 59-60 yil bo'lgan bo'lsa-da, shoir ijodining mukammal nashri hali ham amalga oshirilmagan. Shuni ta'kidlash kerakki, shoir biografiasini yoki ijodiy merosini o'rganishda dastlab uni manbashunoslik va matnshunoslik aspektida o'rganish lozim. Sir emaski, bu sohada ish olib borish uzoq yillarni o'z ichiga qamrab oladi. Biroq shoshma-shosharlik ila amalga oshirilgan har qanday ish ortidan ajdodlar merosiga noaniq fikrlar yuzaga kelaveradi.

Adabiyotshunos G'.Karimov Avaz O'tarning O'zR FASHI dagi №942, 3451 raqamli qo'lyozma devonlari, uning adabiy merosi ko'lami haqida ma'lumot berib, uni "20.000 misradan oshiqroqdir" deb ko'rsatadi hamda "Shoir devoniga "Saodat-ul-iqbol" ("Baxtli iqbol") deb nom qo'ygan"ini asossiz tarzda bayon qiladi. Vaholanki, G'.Karimov ta'kidlab ko'rsatayotgan №942, 3451 raqamli qo'lyozma devonlarga maxsus nom berilmagan.

Ikkinchidan, Avaz O'tarning 3451 raqamli devonida o'n besh ming ikki yuz to'qson bir (15.291) misra, 942 raqamli qo'lyozma devonida esa yigirma ikki ming ellik besh (22055) misra she'r borligi G'.Karimov qayd qilayotgan raqamdan bir necha ming ko'p ekanligini ta'kidlamog' lozim [Karimov, 1966, 261].

G'.Karimov yana bir o'rinda, Avaz O'tar ijodining taraqqiyot bosqichlari xususida mulohazali fikrlarni keltiradi. Uning ma'lumot berishicha, Avaz O'tar ijodini uch davrga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq.

Birinchisi, Avaz O'tar ijodining ilk davri. U bu davrni "XIX asrning oxirlaridan 1905-yilgacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi", deya ta'kidlaydi. G'.Karimov ushbu davrda shoir yosh bo'lgani, she'riyat ilmini o'rganishni boshidan kechirayotgan, ma'lum darajada saroy adabiyoti ta'sirida ijod qilgani yuzasidan fikr-mulohaza bildirib, quyidagilarni yozadi: "Avaz O'tar o'z ijodini mavjud adabiy muhit ta'siri ostida boshladi... Natijada, Avaz O'tar dastlabki vaqtlarda saroy adabiyoti ruhi va mavzusida ishqiy-shahvoniy she'rlar yozish bilan mashg'ul bo'ldi. Avaz O'tarning bu davrda yaratgan asarlari saroy adabiyotiga xos bo'lgan formalizm, san'atpardozlik xususiyatlari bilan xarakterlanadi" [Karimov, 1966, 257-275].

Yuqoridagi fikrlarni dalillash maqsadida shoir qalamiga mansub 7 baytdan tarkib topgan "Xabar" radifli g'azalini keltiradi. G'azal quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Qosido, ber ul sumanbardin xabar,

Rohatijon, sho'xi dilbardin xabar.

Maqta'i esa:

Ey Avaz, topg'il demish necha g'azal

Shoiri dono-vu hunarvardin xabar.

Ko'ringanidek, g'azalning matla' va maqta'ida tadqiqotchi nazarda tutgan masala mavjud emas. G'azalning 2-, 3-, 4-, 5-baytida ham hech bir o'rinda "saroy adabiyoti ruhi va mavzusida ishqiy-shahvoniy" hamda "formalizm, san'atpardozlik xususiyatlari" o'z aksini ko'rsatmaydi.

Adabiyotshunos yana bir o'rinda, shoir qalamiga mansub 7 baytli "O'lukka jon berur jonbaxshi guftoringg'a sallamno" misrasi bilan boshlanuvchi g'azalning 3 baytidan namuna keltirib, "g'oyavoiy – badiiy jihatidan "Xabar" radifli she'rdan farq qilmaydi" degan fikrni ilgari suradi. Bu g'azalning ikkalasi ham shoirning 1908-yilda kitobat qilingan

№942 raqamli devoni qo'lyozmasida ko'zga tashlanadi [Devon. №942. –B. 66a.].

Bunday she'rlar har bir ijodkor ijodining ilk davrida, balki keyingi davrlarda ham uchrashi tabiiy holdir. G'.Karimov ushbu g'azallarga hech bir o'rinda havola bermagan. Ma'lumki, shoir 14 yoshdan she'r yoza boshlagan. Bu davrlarda u qaysi mavzularda she'rlar yozgan? 18 yoshidan keyin esa saroyda faoliyat yuritgan. Demak, shoir ijodining takomil bosqichlarini belgilashda, asosan, har bir asardagi mazmun-mohiyatning asosli tahlili buni taqozo etadi. Bundan tushunish mumkinki, "Xabar" va "Sallamno" radifli g'azallar "Avaz O'tar ijodining ilk davridan 1905-yilgacha" bo'lgan davrda emas, 1907 yoki 1908-yilgacha bo'lgan davrda yaratilgan bo'lishi ham mumkin.

G'.Karimov Avaz O'tar ijodining ikkinchi davrini "1905-yildan 1914-yilgacha bo'lgan davr" – deb ko'rsatadi. Bunda Avaz O'tar mumtoz adabiyotning eng yaxshi yo'nalishlarida ijod qilib kamol topganini ham baholaydi. Avaz O'tar devoniga kirgan she'rlarning ko'pchiligi shu davrda yaratilgani, shaklan rang-barang, asosiy mavzusi ishqiy mavzuda ekanini aytadi. Oliming bu fikrlari ham nisbatan o'zini oqlaydi. Shoir devonlarida hamd, na't hamda pand-nasihatga boy she'rlari ham mavjud, buni "Eyki davlat topmoq o'lsa maqsading olam aro, Sidqi ixlosing bila besh ishni qilg'il borho" misralari bilan boshlanuvchi 4 baytdan tarkib topgan qit'asi bilan izohlash mumkin [Devon. №942. – B. 304b, 305a].

G'.Karimov shoir ijodining uchinchi davrini "1914-yildan to umrining oxirigacha bo'lgan davrdagi ijodi" – deya ko'rsatib, Avazning demokratik shoir sifatida mustahkam va izchil yo'nalishda turib, o'z ijodida ma'rifatparvarlik va ozodlik motivlarini ilgari surganini ham izohlaydi.

Nazarimizda shoir ijodini "uch bosqichda o'rganish"da "Aniqlik" eng asosiy mezon bo'lib xizmat qilishi lozim. Bular, asosan, har bir she'rning sanasi va yillarida o'z aksini ko'rsatadi. Boshqa jihatdan asossiz keltirilgan faktlar shoir ijodining xronologiyasini belgilashda noaniqliklarni keltirib chiqaradi.

1984-yilda Avaz O'tar tavalludining 100 yilligi nishonlangan. Shu munosabat bilan N.Qobulov "Avaz O'tar o'g'li – mutafakkir shoir" nomli kitob nashr qildiradi. Bunda shoirning 1912-1919-yillarda yozilgan "Xalq", "Ulamolarg'a xitob", "Sipohiyarg'a", "Fidoiy xalqim" kabi she'rlari hamda "Faloniy" turkumidagi qit'alarini tahlil qilib, shoir she'rlaridagi asosiy g'oya – ma'rifatparvarlikning yangi shaklini bayon qilganini ta'kidlaydi. Jumladan, N.Qobulov "Shoir zamonasidagi shavqatsizlik, jabr-zulm, xon va beklarning beboshligidan xalqning noroziliklarini o'z ko'zi bilan ko'rди. U xalqning manfaatiga zid bo'lgan barcha xatti-harakatlarga qarshi o'zining she'r va g'azallari bilan javob berdi" – degan asosli fikrlarni keltiradi [Qobulov, 1984, 30].

N.Qobulov "Avaz O'tar o'g'li – mutafakkir shoir" risolasidagi fikrlarni takomillashtirib, 1987-yili V.Mo'minova, I.Haqqulovlar bilan birgalikda "Avaz va uning adabiy mihiti" nomli monografiyasini e'lon qilgan. U tadqiqotida XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Xorazmning madaniy-adabiy hayotini aks ettirib, Avaz O'tar, Mutrib, So'fi, Rog'ib, Faqiriy kabi shoirlar biografiasiga doir qimmatli ma'lumotlar beradi. Olim Avaz O'tar, So'fi, Mirzo, Tabibiy, Faqiriy, Mutrib, Rog'ib, Chokar, Devoniyalar ijodida ijtimoiy hayot real tasvirlangani, ma'rifatparvarlik g'oyalari ilgari surilganini yuqori baholaydi. Shu o'rinda, ular Munis, Ogahiy, Komil Xorazmiy kabi shoirlarning ma'rifiy qarashlarini rivojlantirganiga ham munosabat bildiradi [Qobulov, Mo'minova, Haqqulov, 1987. 5-191].

N.Qobulov ushbu tadqiqotida shoir ijodini G'.Karimov kabi uch davrga bo'lib o'rgangan [Karimov 1966, 257-275; Qobulov, 1984, 106-158]. U G'.Karimovdan farqli o'laroq shoir ijodini quyidagicha tasniflagan:

1. Avaz O'tar ijodining ilk davri (1900-1906-yillar). "Bunga uning ilk devoni asos bo'ladi" – deyilgan.

Shoirning ilk devoni 1907-yilda Chokar tomonidan kitobat qilingan. Ushbu qo'lyozma devon hozirda O'zR FASHI asosiy fondida №3451 raqami ostida saqlanmoqda. Tadqiqotchi buni asoslashda shoirning 1900-1906-yillarda yozilgan devoni borligiga ishora qiladi. Biroq asos keltirmaydi. U faqat shoirning fanga ma'lum bo'lgan №3451, 7102, 942 raqamlari ostidagi qo'lyozma devonlarinigina havola qiladi. Vaholanki, shoirning 1907-1908-yillardan oldin yozilgan devoni haligacha ilmga ma'lum emas.

2. Avaz ijodining xalqchil va hayotiy namunalar bilan kamol topa boshlagan davri (1907-1909-yillar). "Bunga shoirning ikkinchi devonini asos qilib oldik", ya'ni O'zR FASHI dagi №942 raqamli qo'lyozma devon nazarda tutilmoqda. Biroq 942 raqamli devon qo'lyozmasi 1908-yilda Usto Qurboniyoz tomonidan kitobat qilingan...

3. "Avaz O'tar ijodining revolyutsion-ma'rifatparvarlik davri (1910-1919-yillar)". Bu davrni yoritishda shoirning gazeta va "O'zbekcha inqilob she'rlari yug'urumi" to'plamidagi she'rlari nazarda tutilgan.

N.Qobulov, G'.Karimovlarning qarashlari Avaz O'tar ijodining xronologiyasini aniqlashga qaratilgan. Buni e'tirof etish kerak. Biroq har bir ijodkor ijodining ilk davridan to takomilga yetgan davrini ko'rsatishda aniqlik eng asosiy mezon bo'lib xizmat qilmog'i lozim. Shuni inobatga olib shoir ijodini o'ranishda quyidagi ikki tasnif buni oqlaydi:

Shoirning 1907-yildan to 1910-yilgacha bo'lgan davrda yaratilgan barcha she'rlari misolida;

1910-yildan shoir umrining oxirigacha bo'lgan davr, ya'ni 1919-yil.

1907-1908-yillarda shoirning qo'lyozma devonlari tuzilgan. Bundan tashqari, Muhammad Rahimxon II – Feruz va Isfandiyor tomonidan tuzilgan 1907-1911-yillarda kitobat qilingan qo'lyozma bayoz-majmualar ham bor. Unda shoir she'rlaridan namunalar uchraydi.

Shoir ijodini yuqorida keltirilgan bosqichlar asosida o'rganish manbalarda ko'rsatilgan sana, yillarning aniqligi bilan belgilanadi. Bu esa shoir biografiyasining yorqin namunasi ko'rsatadi.

N.Qobulov Avaz O'tarning O'zR FASHIda saqlanayotgan №3451, №7102, №942 qo'lyozma devonlaridagi adabiy merosi ko'lamini G'ulom Karimov (20.000 misradan oshiq) qaydidan farqli o'laroq "40.300 misraga yaqin" deb ko'rsatadi. №942 raqamli devon qo'lyozmasidagi g'azallar sonini 860 ta, muxammas 170 ta, musaddas 10 ta, musabba' 10 ta, murabba' 10 ta, tarji'band 5 ta, ruboiy 96 ta, qit'a 94, soqiynoma esa 44 ta ekanini aytadi.

N.Qobulov Avazning №942 raqamli devoni qo'lyozmasidagi g'azallari sonini 11 taga, muxammaslar sonini 9 taga, soqiynomalar sonini 39 taga, ruboiylar sonini 5 taga, qit'alar sonini esa 66 taga, ya'ni she'rlar sonini 130 taga sun'iy ravishda oshirib ko'rsatgan hamda tarji'bandni 1 taga kam bergan. Natijada shoirning №942 raqamli devoni qo'lyozmasidagi she'rlar soni 1289 taga yetgan. Bundan tashqari, shoir devoni qo'lyozmasidagi mustahzod, musamman, qasidalari tilga olinmagan. Vaholanki, ushbu devonda mavjud bo'lmagan "musabba'"ni 10 ta" – deya qayd qiladi [Qobulov, Mo'minova, Haqqulov, 1987. 187-191]. Shoirning №3451, №7102 raqamli devoni qo'lyozmalarida ham bu hol takrorlangan.

Xulosa. Avaz O'tar hayoti va ijodi sobiq Sovet davrida sezilarli darajada ko'p o'rganilgan. V.Mirzayev, G'.Karimov, N.Qobulov kabi olimlari tomonidan amalga oshirilgan yirik tadqiqotlarda shoir she'rlarida ilgari surilgan ma'rifatparvarlik g'oyalari tadqiq qilinib, uning ijodiga munosabat bildirilgan.

V.Mirzayev, G'.Karimov, N.Qobulov kabi olimlarning shoir hayoti va ijodiga doir kuzatishlarida davr mafkurasining bosimi, adabiy merosiga bir tomonlama munosabat ustuvorlik qilingani ko'zga tashlanadi. Binobarin, Avaz "Saroy shoiri", "an'anaviy shoir", "inqilobiy ma'rifatparvar", "demokrat", "isyonkor" kabi sifatlar bilan ta'riflangan.

V.Mirzayev, G'.Karimov, N.Qobulovlarning tadqiqotlarida, asosan, shoirning 1910-yillardan keyin yozilgan she'rlari o'rganilgan. Uning qo'lyozma devonlaridagi hamd-g'azallari, soqiynomalari, ruboiy hamda qit'alari to'liq o'rganilmagan. Zero, shoir asarlarini monografik tadqiq qilish kun tartibidagi muhim masalalardandir.

ADABIYOTLAR

1. Юсупов Ю. Демократ шoir Авaz Ўтар ўгли // Шарк юлдузи. 1954. №10. – Б. 120-125.
2. Юсупов Ю. Авaz. Адабий-биографик очерк. – Тошкент: ЎзР ФА. 1954. – Б. 100.
3. Авaz Ўтар ўгли. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи: Юнус Юсупов) – Тошкент: Ўзбекистон ССР давлат нашриёти. 1956. – Б. 64.
4. Мирзаев В. Авaz Ўтар ўгли (маърифатпарвар ва революцион демократ куйчи). – Тошкент: ЎзР ФА нашриёти, 1961. – Б. 71.
5. Каримов Г. Ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. Учинчи китоб. (XIX асрнинг иккинчи ярмидан XX бошларигача). – Тошкент, Ўқитувчи. 1966. – Б. 297.
6. Юсупов Ю. Авaz Ўтар ўгли. Хоразм шoirлари. – Тошкент: Бадий адабиёт. 1967. – Б. 124.
7. Юсупов Ю. Ўт чакнаган сатрлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат. 1983. – Б. 180.
8. Авaz. Сайланма (Нашрга тайёрловчи: Юнус Юсупов ва Ваҳоб Раҳмонов). – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1984. – Б. 330.
9. Қобулов Н. Авaz Ўтар – ўзбек демократик адабиётининг йирик вакили. – Тошкент, 1985. – Б. 74.
10. Петров М. Авaz Утар углы. Стихи поэтов народов дореволюционной России (XIX - начало XX в.). Библиотека мировой литературы для детей. 50 томов. 58 книг. 16 том. 1987. 10036К, 728 с. Россия.
11. Қобулов Н., Мўминова В., Ҳаққулов И. Авaz ва унинг адабий муҳити. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 197.
12. Фафур Фулом. Мукамал асарлар тўплами. Адабий-танқидий мақолалар. Ўн икки томлик. Ўн биринчи том. – Тошкент: Ўзбекистон ССР "Фан" нашриёти, 1989. – Б. 151.
13. Авaz Ўтар. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи: Юнус Юсупов нашри асосида қайта нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи: Гулсара Исмоилова). – Тошкент: Sahhof. 2025. – Б. 559.
14. Абдуллаев Ҳ. Фафур Фулом Хоразм адабий муҳити ҳақида/ Фафур Фулом ижодининг маънавий-маърифий аҳамияти" номли конференция. – Тошкент: Ўзбекистон фанлар Академияси. 2003. – Б. 33-34.
15. Qo'lyozma manbalar:
16. O'z R FASHI, asosiy fond. Qo'lyozma. Devoni Avaz. №3451.
17. O'zR FASHI, asosiy fond. Qo'lyozma. Devoni Avaz. №7102.
18. O'zR FASHI, asosiy fond. Qo'lyozma. Devoni Avaz. №942.